

# "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan og'ir toifadagi yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xayrli ishlar davom etmoqda

// 09.09.2024

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tomonidan-og-ir-toifadagi-yoshlarni-har-to>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash va mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus ishchi guruhi tuzilib, bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, Toshkent viloyati Parkent tumanining "Kungay", "Nurobod", "O'choq", "Soy" va "Teman" mahallalari va ularda istiqomat qiluvchi og'ir toifadagi yoshlar Jamiyatga biriktirilgan bo'lib, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar izchil davom etmoqda. Yaqinda Jamiat tomonidan 4 nafar mana shunday yoshlarga dehqonchilik faoliyati bilan shug'ullanishi va o'zini band qilish uchun 3 ta motokultivator hadya qilingan edi.

Bugun tumanning Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 3-sektor shtabida "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan "og'ir toifa"dagi 2 nafar qizga tikuv mashinalari topshirildi.

Shuningdek, 6 nafar yoshning bandligini ta'minlash uchun parranda olib berildi. 1-guruh nogironi bo'lgan yoshga moddiy yordam ko'rsatilib, yana 1 nafariga buyrak yetishmovchiligi kasalligidan davolanish muolajalari hamda bir yillik tibbiy ko'rikdan o'tish xarajatlari qoplab berildi. Shuningdek, bir nafar talabaning OTM tahsil olishi uchun shartnomasi to'lab berilgan bo'lsa, bir nafar yosh oilaning nogiron farzandiga tibbiy muolajalar uchun 8 mln so'm pul ajratildi.

Bundan tashqari 26 nafar yoshlar bilan tizimli ishlar olib borilmoqda.





  uzkimyosanoat

  uzkimyosanoat.uz

 (+99878) 140-74-26



  uzkimyosanoat

  uzkimyosanoat.uz

 (+99878) 140-74-26



uzkmyosanoat

uzkmyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26



uzkmyosanoat

uzkmyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**